

## XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI

**Naimova Nargiza Akbarovna**  
*Osiyo xalqaro universiteti*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:** xizmat ko'rsatish, samaradorlik, unumdorlik, resurs.

### Annotatsiya

Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash mezonlari tahlil qilingan va bu bo'yicha kerakli ko'rsatkichlar keltirilib o'tilgan. Shuningdek bu borada tegishli xulosa va takliflar berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasining kengayib borishi bilan mehnat jarayonida amalga oshadigan faoliyat samaradorligini baholash masalalari tadqiqotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bizning tadqiqotimizda ham ushbu muammoga e'tibormizni qaratamiz. SHuning uchun dastlabki tadqiqot jarayonida «samaradorlik», «iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligi» kategoriyalariga va ularning mohiyatiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Xizmat ko'rsatish faoliyati turli xil ko'rinish va yunalishlarda xizmat ko'rsatish natijasida iste'molchilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini kondirishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi. Ushbu faoliyat pirovard natijalarga erishishda iste'molchilarning bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi asosida amalga oshiriladi. Xizmat ko'rsatish jarayonida inson kapitali asosiy ishlab chiqarish omili bo'lganligi sababli sohada mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning tavisifi va mazmuniga e'tibor qaratamiz.

Samaradorlik tushunchasi murakkab, keng qamrovli kategoriya sifatida ilmiy adabiyotlarda (efficieny – inglizcha) bir qancha talqinga ega bo'lib, u keng tarqalgan «efficieny» iborasi asosida samaradorlik, harakatchanlik, mahsuldorlik, harakatchanlik qobiliyati, operativlik kabi tushunchalar bilan izohlanadi. Bugungi kunda samaradorlikning ko'plab ta'riflari nafaqat iqtisodiyot fanlarida, balki boshqa yo'nalishlardagi fanlarda ham qo'llanilib kelinmoqda.

Iqtisodiyot fanlarida «samaradorlik» tushunchasi keng va tor ma'noda talqin qilinadi.

Keng ma'noda «Samaradorlik» tushunchasi – atrof muhitga samarali va adekvat yondashuv qobiliyati, nisbiy samara, operatsiyalar va loyihalar sifatida talqin qilinadi.

«Samaradorlik» mohiyatini aniqlashning yuqorida ta'rifini qaraydigan bo'lsak, uning bir qancha resurlari mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Chunki bu tushuncha bir qancha mezonlar, xususiyatlar orqali ifodalinishi mumkin. Shuningdek, samaradorlik kategoriyasi iste'molni qondirish sifatida ham, ishlab chiqarishning maqsadga muvofiqligi sifatida ham, korxonalarining samarali shakllanishi sifatida va hakoza ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

«Samaradorlik» tushunchasi nihoyatda keng tushunchadir, u olingan samaraning sarflarga nisbatini aks ettiradi. Samaradorlashtirish – mehnat faoliyatining u yoki bu sohasida yuqoriroq natijalarga erishish va ushbu natijalarning birligiga sarflarni qisqartirish maqsadlarida eng yaxshi echimlarni izlashdir.

«Samaradorlik» kategoriyasi tor ma'noda potensial va real faoliyatlar natijasining umumiy tasnifini ifodalab, asosiy e'tibor olingan natijalarga qaratiladi.

Ushbu keltirilgan ta'riflar «samaradorlik» tushunchasining muhim xususiyatlarini ifodalab, birinchidan, bu kategoriya murakkab ijtimoiy-iqtisodiy termin hisoblanadi va u muayyan mezonlar asosida baholanadi. Ikkinchidan, «samaradorlik» nisbiy kategoriya bo'lib, u aniq maqsadlar yo'nalishiga bo'ysunadi. Ya'ni, samaradorlikni aniqlash asosiy maqsadlar natijasidagi faoliyatlarni ifodalaydi.

Jahon iqtisodiyoti fanida keng tarqalgan resurs-sarf yondashuvida samaradorlikni baholash unumdorlik ko'rsatkichlaridan foydalanish orqali amalga oshirilgan. Ta'kidlash kerakki, «efficiency» atamasini lug'aviy ma'nosi – bu mahsuldorlik, unumdorlik ma'nolarini bildiradi. Buning aksi bo'lgan ma'nolarni ham keltirish mumkin.

S.E.Sarkisovning fikricha, «unumdorlik mahsulot yaratish uchun foydalanilgan resurslar samaradorligi o'lchovidir. A.B.Borisovning talqinida esa «unumdorlik – foydalanilayotgan resurslar birligiga to'g'ri kelgan mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichi» hisoblanadi. Shuning uchun bundan keyingi tahlil jaryonida «unumdorlik» kategoriyasining mohiyatini yoritib berish zarur, deb hisoblaymiz.

«Unumdorlik» termini (inglizcha productivity – unumdorlik, mahsuldorlik, mahsulot chiqarish) – ishlab chiqarish faoliyatining mahsuldorligi, samaradorligi sifatida ta'riflanadi. XXI asrning 70 yillaridan boshlab «o'ta naflilik nazariyasi» paydo bo'lganda ushbu kategoriya ilmiy adabiyotlarda ommalasha boshladi. Biroq hozirgi vaqtda ham «unumdorlik» kategoriyasiga turlicha yondashuvlarda turli xil ta'riflar berilgan.

Xususan, «Bolshoy ekonomicheskii slovar» kitobida unumdorlikka, bir ishchi jihozlar birligi, bo'linma va boshqalar tomonidan vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot, xizmatlar, yarim tayyor mahsulotlar» deb talqin qilingan.

Shuningdek, zamonaviy iqtisodiy nazariyada mehnat unumdorligining mohiyati J.B.Seyning chegaraviy unumdorlik hamda Dj.Klarkning unumdorlikni pasayib borish nazariyalariga asoslanadi. Chegaraviy unumdorlik nazariyasi jamiyatda daromad va qiymatning shakllanishi jarayonida qatnashuvchi omillarni unumdorlik tavsifiga egaligini bildiradi. Dj.Klarkning nazariyasiga asosan ishlab chiqarishning har bir omili muayyan chegaraviy unumdorlikka, unga muvofiq ravishda aniq mehnat muayyan bahoga ega bo'ladi.

Resurs-sarf yondashuvida samaradorlikni aniqlashda unumdorlik ko'rsatkichidan foydalaniladi. Lekin unumdorlik va samaradorlik kategoriyalari ijtimoiy va iqtisodiy mohiyati bo'yicha turli xil kategoriyalardir. Agar unumdorlik faqat ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lsa, samaradorlik esa bu faoliyat natijasi bilan baholanadi. Resurs-sarflar yondashuviga ko'ra, unumdorlik va samaradorlikning o'zaro bog'likligini asosiy sababi shundaki, ushbu yondashuv XIX asrning boshlarida, ya'ni sanoat rivojlanishi bosqichida paydo bo'la boshlagan. Mazkur holda resurslar yondashuvi moddiy ne'matlar ishlab chiqarish ommaviy standartlash asosida samaradorlikni baholash masalasini nazarda tutadi. Bunda asosiy masala bo'lib, «eng kam sarf harajatlar asosida yuqori xo'jalik foydasiga erishish» hisoblanadi. Mazkur fikrdan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlashimiz mumkinki, industrial iqtisodiyot sharoitida moddiy ishlab chiqarish asosiy ahamiyatga ega bo'lgan. Natijada bu yondashuvga asosan har qanday ishlab chiqarishning asosiy maqsadi – maksimal foyda olish hisoblanadi. Yana shuni ta'kidlash mumkinki, XX asrning boshlarida ham sarf-xarajatlar evaziga yuqori foyda olish samarali faoliyatning asosiy maqsadi, nafaqat iqtisodiy nazariya faning birlamchi maqsadi, balki amaliy iqtisodiyot fanining ham bosh maqsadi hisoblanadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)ning iqtisodiyot sohalari va tarmoqlaridagi samaradorligini tadqiq etishda uning mezonlari va ko'rsatkichlarini to'g'ri tushunish va hisoblab chiqish katta ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda xizmat ko'rsatish sohasida ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni har tomonlama chuqur o'rganish va tushunish uchun alohida uning mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish zarurdir. Lekin bunda ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlari o'zaro bog'liq emas, degan fikr kelib chiqmaydi. Aksincha, ular uzviy bog'langan va bir-birini taqozo qiladi, to'ldiradi.

Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy samaradorlik sifat jihatidan hisoblab chiqilmasa va o'lchanmasa, uni muntazam oshirib borishi bo'yicha belgilangan ishlarni bajarib bo'lmaydi.

Muayyan iqtisodiyot tarmoqlari singari xizmat ko'rsatish korxonalarida samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlari iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik mezonlariga bo'linadi. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy samaradorlikni o'rganishda uning mohiyati, mezonlari va ko'rsatkichlarini to'g'ri tushunish va hisoblab chiqish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy samaradorlik sifat jihatdan hisoblab chiqilmasa va o'lchanmasa, uni muntazam oshirib borish bo'yicha belgilangan tadbirlarni bajarib bo'lmaydi.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida uning ijtimoiy jihatlarini tadqiq etish ham muhim ahamiyatga ega.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi – bu kam mehnat sarfi va yuqori xizmat sifati orqali iste'molchilar ehtiyojini yuqori darajada qondirish uchun tovarlar va xizmatlar realizatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ko'p tomonlama faoliyat natijasida erishishda ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik balansining mehnat munosabatlari orqali aks ettirishdir.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini muvoffaqiyatli boshqarish ularning shakllanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'nalishlari, mezonlari va kompleks baholash ko'rsatkichlarini tizmlashtirish hamda alohida belgilari bo'yicha guruhlab, tasniflashni zarur etadi. Bu esa xizmat ko'rsatish jarayonida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish, xizmat ko'rsatish jarayonini optimalligini ta'minlash asosida uning miqdor va sifat ko'rsatkichlarining real va potensial imkoniyatlaridan samarali foydalanishga shart-sharoit yaratadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni belgilovchi asosiy omillar va shart-sharoitlarni tadqiqoti uning asosiy mezonlarini aniqlash imkoniyatini beradi. Ular xizmat ko'rsatish faoliyati samaradorligini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligi atroflicha tahlil qilinsa, uning asosiy mezonlarini qamrab olish va ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish qulaylashadi. Chunki, xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatida resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari bir tomondan, xizmat ko'rsatish jarayonini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblansa, ikkinchi tomondan, mazkur soha rivojlanishining pirovard ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining samaradorligini umumiy mezonini belgilashda ham hozircha yagona yondashuv mavjud emas. Ba'zi iqtisodchilar fikricha, xizmat ko'rsatish yuksak darajada bo'lgan va barcha resurslardan oqilona foydalangan holda aholining talabini to'laroq qondirish xo'jalik faoliyati samaradorligining mezonini hisoblanadi. Ko'pgina iqtisodchilar xarid quvvatiga ega bo'lgan aholiga xalq iste'moli buyumlariga bo'lgan talabini qondirish darajasi xizmat ko'rsatish faoliyati samaradorligining umumiy mezonini hisoblanadi, deyishsa, boshqalar xizmat ko'rsatish jarayoni samaradorligi o'zaro bog'langan asosiy ko'rsatkichlar tizimi bilan belgilanishi kerak, ko'rsatkichlarni bu tizimi xizmat ko'rsatishda yaratilgan yalpi daromadi miqdorini; aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarining miqdorini to'la aks ettiradi, deyishadi.

Bizning fikrimizcha, xizmat ko'rsatish korxonalarida xo'jalik faoliyatida samaradorlikni kompleks tahlil qilish faqat uning mezonini o'z ichiga olish bilan chegaralanib qolmasligi zarur, chunki mezon asosan samaradorlikni oshirishning mohiyati va asosiy vazifalarini ifodalaydi, lekin o'lchov hamda baholash vositasi bo'lib xizmat qila olmaydi. Bu vazifalarni samaradorlik ko'rsatkichlari bajaradi.

Muayyan iqtisodiyot tarmoqlari singari xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlari iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik mezonlariga bo'linadi. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy samaradorlikni o'rganishda uning mohiyati, mezonlari va ko'rsatkichlarini to'g'ri tushunish va hisoblab chiqish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy samaradorlik sifat jihatdan hisoblab chiqilmasa va o'lchanmasa, uni muntazam oshirib borish bo'yicha belgilangan tadbirlarni bajarib bo'lmaydi.

Iqtisodiy samaradorlikning o'sishi ishlab chiqarishning har qanday shakli rivojlanishning obektiv qonuniyatidir, chunki jamiyatning rivojlanishi ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi va sifati ortishi, ishlab chiqarish va muomala xarajatlari kamayishi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun jamg'armani ko'paytirishni talab qiladi. Iqtisodiy samaradorlikning tub mohiyati sarflangan resurs birligiga olingan natijadan iboratdir. Malumki, natijalar va sarf xarajatlar takror ishlab chikarish jarayonining asosiy jihatlarini umumlashtiradi, xizmat ko'rsatish korxonasi kam sarf-xarajatlarni qilgan holda yuqori natijadorlikka erishishdan manfaatdordir. Bu tarmoq yalpi ishlab chiqarish va muomala jarayonining umumiy iqtisodiy tamoyili bo'lib, resurslardan foydalanish bilan uning natijalari o'rtasidagi oqibat sababli aloqadan iborat bo'lgan faoliyat samaradorligini oshiruvchi qonun sifatida maydonga chiqadi.

Ijtimoiy samara, samaradorlik tushunchalari ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda uchrasada, haligacha ijtimoiy samara va samaradorlikning mezonini va ko'rsatkichlari qanday baholanadi va hisoblanadi degan savollarga haligacha aniq javob yo'q.

Umuman olganda, insonning har tomonlama va uyg'un rivojlanishi uchun maqsad qilib qo'ygan jamiyatning ijtimoiy maqsadiga erishishi – ijtimoiy samaradorlik mezonidir. Mazkur tushuncha nuqtai nazardan turlicha qarashlar mavjud. Jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida barkamol insonning kamol topishida ko'maklashuvchi vosita ijtimoiy samaradorlik mezonini hisoblanadi. Ijtimoiy samaradorlik bir emas, balki bir nechta mezonga egadir. Uning birinchi mezonini – xalqning ehtiyojini qondirish darajasi va jamiyatning ijtimoiy tarkibini takomillashtirish bo'lsa, ikkinchi mezonini samaradorlikning o'sishiga bilvosita ta'sir qiluvchi iste'mol jarayonlarini kamaytirishdir.

Bizning fikrimizcha, xizmatlar sohasi sifatidagi ijtimoiy samara tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabni yuqori savdo xizmati ko'rsatgan holda to'la qondirish, xizmat ko'rsatish korxonasi xo'jalik faoliyati sifatiga ega mehnat sharoitlarini yaxshilash, xodimlarning fondlar bilan qurollanish darajasini oshirishi va xizmat ko'rsatish madaniyatini yuksaltirish tushiniladi.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini kompleks baholashda yagona xulosaga kelgani yo'q. SHu sababli tarmoq korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligi mezonini aniqlash va kompleks baholash uslublarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo'lib, «kapitalning organik» tuzilishi o'rtasidagi nisbatni to'g'ri baholash va faoliyatning pirovard natijalarini oshirish yunalishlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida resurslardan samarali foydalanish davr talabi. Bu hech eskirmaydigan muammodir, chunki undan samarali foydalanish mulkning yoki ijtimoiy tizimning qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar hamisha dolzarbdir.

Shu boisdan ham bu masala haligacha olimlar va mutaxassislar diqqat e'tiborida bo'lib kelmokda va bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida ham o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish respublikamiz uchun bugungi kunda, ayniqsa, muhimdir.

Miqdoriy darajada iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini lokal mezonini bevosita mulk egasi va ishlab chiqaruvchilar manfaatining mushtarakligidan kelib chiqadi. Samaradorlik global mezonida

ishlab chiqarilgan yalpi milliy mahsulot taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi orqali maqsadga erishilsa, bu lokal mezonda milliy daromadning qo'yi bo'g'inlarida taqsimlanishi orqali erishiladi.

Bizningcha, xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat unumdorligi darajasi va dinamikasi, o'rtacha ish haqi, har bir xodimga to'g'ri keladigan ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sish sur'ati va uning mehnat haqi hajmiga nisbati hamda mehnat haqining bir so'miga olingan natija ko'rsatkichlari tizimidan foydalanib mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi keng tavsifiga ega bo'lish mumkin. Mazkur ko'rsatkichlar 1-ildovada keltirilgan.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat unumdorligining o'sish sur'ati va mahsulotni mehnat sig'imining pasayishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$MY_{yc} = \frac{M_{cuz} \times 100}{100 - M_{cuz}}, \quad (1.1)$$

bu yerda:  $MU_{us}$  – mehnat unumdorligining o'sish sur'ati;

$M_{sig}$  – mehnat sig'imi.

$$MC_{nac} = \frac{MY_{yc} \times 100}{100 + MY_{yc}}, \quad (1.2)$$

bu yerda:  $MU_{us}$  – mehnat unumdorligining bazis davriga nisbatan o'sish sur'ati (%);

$MS_{pas}$  – mehnat sig'imining bazis davriga pasayishi (%);

Xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat unumdorligini umumiy o'sishi ( $\Delta MU$ ) xizmatlar ko'rsatish hajmini oshishi va ishlovchilar sonini kamayish hisobiga bo'linadi va u quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\Delta MY = \frac{100 \times (\Delta B + \Delta IC_k)}{100 + C_k}, \quad (1.3)$$

bu yerda:  $\Delta V$  – korxonada hisobot davrda mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'sishi, %.

$\Delta IS_k$  – korxonalarda ishlovchilar sonini kamayish, %.

Agarda korxonada ishchilar soni kamaymasa, va aksincha ko'payib borsa, u holda ishchilar sonining foizi teskari belgi bilan ifodalanadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat unumdorligini oshishi hisobiga sof mahsulot o'sishining hissasi  $D_{sm}$

$$D_{cm} = \left( 1 - \frac{\Delta Y_u}{\Delta Y_{cm}} \right) \times 100\%, \quad (1.4)$$

bu yerda:  $\Delta U_i$  – xizmat ko'rsatish korxonalarida ishchilar soning o'sish sur'ati %;

$\Delta U_{sm}$  – sof mahsulot ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, %.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini atroflicha va har tomonlama tahlil qilish uchun uning xususiy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda umumlashtirilgan ko'rsatkichlar ham qo'llaniladi. Iqtisodiy adabiyotlarda umumlashgan ko'rsatkichlarga: korxonada rentabelligi, xarajatlarning nisbiy darajasi, asosiy va aylanma fondlar samaradorligi, sarflangan barcha resurslarning fond samaradorligi kabi ko'rsatkichlar kiradi.



Korxonalar rentabelligi xizmat ko'rsatish korxonasi faoliyatining natijaviy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Korxonalar rentabelligi ( $R_k$ ) xizmat ko'rsatish sohasida sof foydaning korxonalar asosiy va aylanma aktivlari jami yig'indisi summasiga nisbatining foizidagi ulushi bilan aniqlanadi:

$$R_k = \frac{C\Phi \times 100}{\sum AF + \sum HAA}, \quad (1.5)$$

bu erda:  $SF$  – sof foyda hajmi

$\sum AF$  – asosiy ishlab chiqarish fondlari jami qiymati;

$\sum HAA$  – normativ bo'yicha aylanma aktivlar summasi.

Insonlarning har tomonlama va uzviy rivojlanish uchun imkoniyat yaratishni maqsad qilgan jamiyatning pirovard ijtimoiy maqsadga erishishi ijtimoiy samaradorlikni asosiy mezon hisoblanadi.

Ijtimoiy samaradorlikning iqtisodiyot sohalari va tarmoqlaridagi keyingi mezon ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligiga erishishga bilvosita ta'sir etuvchi istemol xarajatlarini kamaytirishdir.

Xizmat ko'rsatish sohasida ijtimoiy samaradorlikni yagona mezon asosida o'lchab bo'lmaydi, chunki soha rivojlanishini ijtimoiy samaradorligining mezon va ko'rsatkichlari turli xildir. Agarda ijtimoiy samaradorlik mezon uning mazmuni va vazifalarini ifodalasa, ko'rsatkichlari esa samaradorlikni baholash quroli sifatida xizmat qiladi.

Bizningcha, xizmat ko'rsatish korxonalar va tashkilotlarida ijtimoiy samaradorlikning statik ko'rsatkichlarini quyidagi guruhlariga ajratib tadqiq etish mumkin:

1. Iste'mol talabi qondirilishini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar;
2. Xizmat ko'rsatish vaqti qisqarishini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
3. Mehnatning shart-sharoiti va tabiati yaxshilanishini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar.

Bizning fikrimizcha, iste'molchilar ehtiyojlarini to'liq qondirishini ifodalovchi ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi; aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi xizmatlar miqdori; ko'rsatiladigan xizmatlarning o'sib borish koeffitsienti; xizmat ko'rsatish vaqti qisqarishini ifodalovchi ko'rsatkichlar; iste'molchilarning xizmat ko'rsatish korxonalar va tashkilotlarida sarflaydigan vaqtini kamaytirish koeffitsienti; bir iste'molchiga xizmat ko'rsatish uchun sarflanadigan vaqt; har bir iste'molchining xizmat ko'rsatish korxonasiga qayta tashrif buyurishi uchun sarflangan vaqt. Bu ko'rsatkich ijtimoiy samarani pasayganligidan dalolat beradi; o'rta miqdorda bir marta xizmat ko'rsatish kerak bo'lgan shaxs uchun sarflanadigan vaqt.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat sharoitlari va mehnatning xarakterini ifodalovchi ko'rsatkichlarga: mehnat jarayonlarini avtomatlashtirish (yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash darajasi); korxonalar bino va inshootlarini zamon talablari darajasiga javob berishi; xizmat ko'rsatish jarayonida ilg'orlar mehnati tajribasidan foydalanish darajasi; texnik va texnologiyalar, asbob-uskuna va mexanizmlarni ilg'orlik darajasi; servis xizmatida band bo'lgan ishchi-xodimlarning malakasi, ma'lumoti va kasbiy darajasi; servis sohasi uchun kerak bo'lgan xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ularni malakasini oshirishni tashkil qilish darajasi.

Keltirilgan ko'rsatkichlardan bittasi qo'llanilsa, umumiy natijadorlikni namoyon etmaydi. Chunki muayyan ko'rsatkich ijtimoiy samarani kichik bir yunalishini tavsiflaydi. Ushbu ko'rsatkichlar birgalikda joriy etilsa, xizmat ko'rsatish korxonalarini ijtimoiy samaradorligiga yetarlicha baho berish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Davronov, I. O., & Shadiyev, A. K. (2020). The cost-effectiveness of improving the quality of hotel

- services. Academy, (4), 40-42.
2. Kayumovich, K. O., Gulyamovich, D. I., & Khudoynazarovich, S. A. (2020). Information and information technologies in digital tourism. Special issue on financial development perspectives of the life standard in Central Asia, 32.
  3. Khudoynazarovich, S. A. (2022). Features of evaluating the effectiveness of activities at the Bukhara State University. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 153-159.
  4. Shadiyev, A. (2022). FEATURES OF EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF ACTIVITIES AT THE BUKHARA STATE UNIVERSITY. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).
  5. Базарова, М. С., Шарипова, М., & Нуруллоев, О. (2021). “РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ” ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.
  6. Базарова, М. С. (2020). Развитие внимания дошкольников посредством дидактических игр. In *Исследования молодых ученых* (pp. 37-40).
  7. Бозорова, М. С. (2021). Глава 10. Стратегия внедрения цифровых технологий и современных методов в образовательный процесс. In *Инновационное развитие науки и образования* (pp. 122-132).
  8. Базарова, М. С. (2021). ЭКОНОМИКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЕЁ РАЗВИТИИ. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 350-354).
  9. Supieвна, В. М., & Firuza, S. (2023). STRATEGIC WAYS OF IMPLEMENTING PERSONNEL POLICY IN COMMERCIAL BANKS. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(7), 22-25.
  10. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL INDICATORS OF BUSINESS EFFICIENCY IN COMPANIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 835-839.
  11. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL ELEMENTS OF BUSINESS STABILITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 877-882.
  12. Xalilov, B. (2024). ISSUES OF IMPROVING THE FINANCIAL MECHANISM OF SMALL BUSINESS ENTITIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 747-753.
  13. Xalilov, B. (2024). COBB-DOUGLAS PRODUCTION FUNCTION AND ITS IMPORTANCE IN BUSINESS MATHEMATICS AND ECONOMIC ANALYSIS. *Modern Science and Research*, 3(1), 754-758.
  14. Khalilov, B. (2024). FOREIGN EXPERIENCE IN PERSONNEL MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 974-978.
  15. қизи Рахмонкулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
  16. Raxmonqulova, N. O. (2022). THE IMPACT OF THE DIGITAL ECONOMY ON RESOURCE CONSUMPTION. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 476-480).
  17. Raxmonqulova, N. (2024). MAIN PRIORITY DIRECTIONS OF REGIONAL ECONOMY DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 371-375.
  18. Sh, Y. D., & Rakhmankulova, N. O. (2021). Risks in the Process of Digitalization of Business

- Activities. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 19-22.
19. Sh, Y. D., & Rakhmanqulova, N. O. (2021). Innovative approaches to the use of digital technologies in theeconomy. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 77-80.
  20. Raxmonqulova, N. (2024). IMPORTANCE OF PERSONNEL MANAGEMENT IN BUSINESS DEVELOPMENT. Modern Science and Research, 3(1), 13-17.
  21. Jumaeva, Z. K., & Gafurov, E. O. (2022). Fiscal policy in ensuring the economic security of the state. In Экономическая безопасность социально-экономических систем: вызовы и возможности (pp. 358-361).
  22. Ruzmetov, B., Ruzmetov, S., Bakhtiyarov, S., Dzhumaeva, Z., & Juraev, K. (2023). Formation of supporting points for production growth based on diversification of the regional industry. In E3S Web of Conferences (Vol. 449, p. 01001). EDP Sciences.
  23. Жумаева, З. К. (2024). Необходимость инновационного подхода в управлении организациями.
  24. Jumayeva, Z. K., & Mamadjonov, G. N. (2024). Ways to Strengthen Financial Control in the Utilization of State Budget Funds. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 4(1), 61-64.
  25. Жумаева, З. К. (2016). Эффективность стратегического управления предприятием. Наука и образование сегодня, (2 (3)), 60-62.
  26. Жумаева, З. К. (2023). ПОТЕНЦИАЛ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ РЕГИОНА. Gospodarka i Innowacje., 41, 333-337.
  27. ЖУМАЕВА, З. СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ТОЧЕК ПРОИЗВОДСТВЕННОГО РОСТА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. ЭКОНОМИКА, 4, 455-458.
  28. Rasulova, N. N., & Jumaeva, Z. K. (2019). Uzbekistan oil and gas industry: history and development prospects. Теория и практика современной науки, (5 (47)), 52-57.
  29. Жумаева, З. К., & Расулова, Н. Н. (2019). Инновационный путь развития экономики Узбекистана. Теория и практика современной науки, (5 (47)), 224-226.
  30. Жумаева, З. К. (2019). СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕГИОНАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. In СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ (pp. 148-152).
  31. Жумаева, З. (2023). МИРОВОЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. Nashrlar, 318-321.
  32. To'rayevna, S. N. (2024). YANGI IQTISODIYOT VA UNING MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI. Gospodarka i Innowacje., (45), 333-339.
  33. Sodiqova, N. (2024). TECHNOLOGY DISCOURSE AND THE POLITICAL ECONOMY OF NEW MEDIA. Modern Science and Research, 3(2), 376-384.
  34. Sodikova, N. (2024). THE MAIN DIRECTIONS OF PROVIDING THE BUSINESS SECTOR WITH QUALIFIED PERSONNEL. Modern Science and Research, 3(1), 133-139.
  35. Sodiqova, N. (2024). TADBIRKORLIK SOHASINI MALAKALI KADRLAR BILAN TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. Modern Science and Research, 3(1), 123-132.
  36. Toshov, M. (2024). STRATEGIC MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION. Modern Science



- and Research, 3(2), 461-468.
37. Toshov, M. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. Modern Science and Research, 3(2), 603-608.
38. Mirzabek, T. (2023). Marketing Kommunikasialari Tizimida Og'r Muloqotlar Xususiyatlari. Innovations in Technology and Science Education, 2(14), 388-391.
39. Hakimovich, T. M. (2023). TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVIDA PEDAGOGIK TAHLIL. Gospodarka i Innowacje., 42, 415-420.
40. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.
41. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. Modern Science and Research, 2(10), 712-717.
42. Abidovna, A. S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM.
43. Рахматов, Ж. А., Алимова, Ш. А., & Бобомуродов, К. Х. (2021). Стратегия инвестиционной политики Республики Узбекистан.
44. Алимова, Ш. А., & Халимова, Д. Р. (2021). СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ СТРАТЕГИЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. In Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации (pp. 340-344).
45. Alimova, S. (2023). THE CONCEPT AND TASKS OF A MODERN MANAGEMENT SYSTEM ENTERPRISE PERSONNEL. Modern Science and Research, 2(12), 1085-1090.
46. Alimova, S. (2024). THE IMPACT OF E-ACCOUNTING IN MODERN BUSINESSES. Modern Science and Research, 3(1), 928-932.
47. Alimova, S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. Modern Science and Research, 3(2), 385-390.
48. Abidovna, A. S. (2024). FORMATION AND DEVELOPMENT OF CAREER AS PERSONNEL TECHNOLOGY OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT. Gospodarka i Innowacje., (45), 327-332.
49. Alimova, S. A., & Khaitov, V. S. (2022). ON THE WAY OF TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN APPLICATION OF ELECTRONIC MARKETING STRATEGIES OPPORTUNITIES. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 303.
50. Akbarovna, N. N. (2024). OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF CRYPTOCURRENCIES IN THE DIGITAL ECONOMY. Gospodarka i Innowacje., (45), 320-326.
51. Akbarovna, N. N., & Bahodirovich, X. B. (2023). AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARINI TUZISH TARTIBI.
52. Ikromov, E. (2024). SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES. Modern Science and Research, 3(2), 103-109.
53. Ikromov, E. (2024). FEATURES AND ADVANTAGES OF SERVICE ENTERPRISES. Modern Science and Research, 3(2), 98-102.
54. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MANAGERIAL WORK IN THE USE OF

- MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES AND METHODS. *Modern Science and Research*, 3(1), 18-23.
55. Ikromov, E. (2024). CLASSIFICATION OF LEADERSHIP STYLES IN THE MODERN MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 615-621.
56. Ikromov, E. (2023). PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES. *Modern Science and Research*, 2(10), 794-797.
57. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISHDA INNOVATSION SALOHIYATNING AHAMIYATI.
58. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE POTENTIAL IN INCREASING COMPETITIVENESS. *Modern Science and Research*, 3(1), 933-938.
59. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE ACTIVITY IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1257-1261.
60. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2023). Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish. *Science and Education*, 4(7), 476-481.
61. Bustonovna, J. Z. (2024). IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI.
62. Bustonovna, J. Z. (2024). O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING BARQAROR O'SISHIDA SANOAT TARMOQLARINING AHAMIYATI.
63. Jumayeva, Z., & Nozimova, A. (2023). Palyno-Morphological Study of Allergenic Flora of Samarkand, Uzbekistan. *American Journal of Plant Sciences*, 14(5), 533-541.
64. Jumayeva, Z., Nurullayeva, N., Nozimova, A., Tursunboev, X., & Dosjanova, G. (2024). Dynamics and characteristics of allergenic plant pollen in the Republic of Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 498, p. 02015). EDP Sciences.
65. Jumayeva, Z. (2024). IMPORTANCE OF INDUSTRIAL NETWORKS IN THE SUSTAINABLE GROWTH OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 3(2), 257-262.
66. Jumayeva, Z. (2024). THE MAIN WAYS OF EFFECTIVE WORK ORGANIZATION IN THE MODERNIZATION OF THE ECONOMY. *Modern Science and Research*, 3(2), 366-370.